



2018 yil Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **14529,5 mlrd.so'mni**, o'sishi **8,3 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2891,7 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **19,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **22,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilda viloyat korxonalarini tomonidan 14529,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 1,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 13,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 5,4 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 161,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilda asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5395,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 37,1 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 15,9 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,2% ga, tabiiy gaz – 7,0 % ga, shag'al – 48,6 % ga, qum – 17,1 % ga va gaz kondensati – 0,3 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Neft, ming tonna			
622,5		565,0	90,8 ↓
Tabiiy gaz, mln.kub.metr			
36213,1		33691,2	93,0 ↓
Gaz kondensati, ming tonna			
1418,0		1414,4	99,7 ↓
Shag`al, ming tonna			
513,5		264,1	51,4 ↓

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7366,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 50,7 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan plastmass quvurlar ishlab chiqarish 11,8 % ga, plitalar va listlar alyuminiydan– 6,6 martaga, alkogol ichimliklar 2,6 % ga, ip-kalava – 2,6 martaga, oshganligini, paxta tolasi va o'simlik yog'i (tozalangan) ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
4399,1	Plastmass quvurlar, tonna 	4920,0	111,8 ↑
4,5	Plitalar va listlar alyuminiydan, tonna 	29,5	655,6 ↑
2791	Alkogol ichimliklar, ming. litr 	2864,8	102,6 ↑
12236,5	Ip-kalava, tonna 	31557	257,9 ↑

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Paxta tolasi, tonna

145037



122433

84,4 ↓

O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

26531,3



24105,3

90,9 ↓


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

2018 yilda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1617,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ni) tashkil

etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 150,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 26,4 % ga, chiqindilarni yigish, ishlov berish, yuqotish, utilizatsiya qilish – 4,4 martaga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2891,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,9 % ni tashkil etdi.

2018 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilda iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 56,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari 43,6 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,9 % tashkil etdi.


2018 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,2 % ulushini), G'uzor (20,6 %) tumanlari, Qarshi shahri (13,5 %), Nishon (9,8 %) va Qarshi (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilda shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,1 %), Chiroqchi (1,7 %), Kitob (1,7 %), Yakkabog' (2,0 %) va Kasbi (2,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi tumani (2017 yilga nisbatan 196,3 % ga), va Qarshi shahrida (120,7 % ga) Kasbi (112,0% ga), Chiroqchi (111,7 % ga), Koson (111,2 % ga), Yakkabog' (109,1% ga), Qamashi (107,6 % ga), Dehqonobod (107,2 % ga) va Nishon (107,2 %) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilda shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (50483,7 ming so'm), G'uzor tumanida (15141,5 ming so'm), Nishon tumanida (9738,8 ming so'm) va Qarshi shahrida (7270,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4567,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilda shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (73,5 %), Yakkabog` tumanida (71,0 %), Shaxrisabz tumanida (65,7), Qamashi (63,5 %), Qarshi (59,8 %) va Shaxrisabz (50,6 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,7 %), G'uzor tumanida (3,7 %), Nishon tumanida (5,4 %) va Dehqonobod tumanida (11,9 %) kuzatildi.


2018 yil shahar va tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 536 tasi Qarshi shahrida, 343 tasi Kitob tumanida, 245 tasi Shaxrisabz shahrida, 224 tasi Yakkabog` tumanida, 195 tasi Qarshi tumanida, 167 tasi Chiroqchi tumanida, 149 tasi Qamashi tumanida, 110 tasi Shaxrisabz tumanida, 139 tasi Koson tumanida, 97 tasi G'uzor tumanida, 76 tasi Kasbi tumani, 54 tasi Muborak tumani, 61 tasi Nishon tumanida, 48 tasi Dehqonobod tumanida va 53 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yil viloyatda 502 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 100 tadan ortiq Qarshi shahriga, 50 tadan ortiq Chiroqchi va Kitob tumaniga, 40 tadan ortiq Qamashi tumaniga, 30 tadan ortiq Yakkabog`, Qarshi tumanlariga va Shaxrisabz shahriga, 20 tadan ortiq Koson va Kasbi tumanlariga, 10 tadan ortiq Shaxrisabz, G'uzor, Nishon, Mirishkor, Dexqonobod va Muborak tumanlariga to'g'ri keladi.